JINOYAT PROTSESSIDA ADOLATLI SUD MUHOKAMASIGA BO‘LGAN HUQUQNI AMALGA OSHIRISHDA PROKUROR FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

*2-darajali yurist **Hasanov Abulmannon Mamatumurodovich***
Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
Surxondaryo viloyati Denov tumani prokurorining katta yordamchisi,
Manzil:Surxondaryo viloyati Denov tumani, M.Baraka ko‘chasi 5-uy.
Tel: 93-767-39-97

Annotatsiya: *Jinoyat protsessida adolatli sud muhokamasiga bo‘lgan huquqni amalga oshirish elementi sifatida jabrlanuvchi va fuqaroviy da’vogarlarning huquq va erkinliklarini himoyasini, sudlanuvchining o‘ziga nisbatan adolatli qaror (hukm, ajrim) qabul qilinishiga bo‘lgan huquqini to‘liq, ishonchli, real vaqt rejimida aktiv va zamonaviy usullarda ta’minlash maqsadida amaliyotdagi mavjud muammolar tahlil qilanadi, sohaga sun’iy intellektni joriy qilish orqali prokurorning muzokara fikridagi xato va kamchiliklarini minimallashtirish, shuningdek, prokurorning muzokara fikri jamlangan elektron axborot bazasini shakllantirish va xizmat davomida foydalanish imkoniyatini yaratish, sudlarga adolatli qaror qabul qilishda ko‘maklashish vazifasini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish, jinoyat sudlarida prokuror vakolatini ta’minlash sohasida yuritiladigan nazorat ishlarining bosqichma-bosqich qog‘oz shaklidan elektron shaklda yuritishga erishish, sudlar bilan hujjat almashish jarayonini soddalashtirish, muzokara fikrini yozma shaklidan elektron shaklga o‘tishi va sudga yuborish imkoniyati, yuqori turuvchi prokurorlarga quyi turuvchi rokurorning muzokara fikrini qonun talablariga muvofiqligini masofadan o‘rganish va baholash, ijobiy va sifatli deb topilgan prokuror muzokara fikrini ommalashtirish, sud muzokara bosqichida yagona prokuror muzokara amaliyotini shakllantirishga oid taklif va tavsiyalar keltiriladi.*

Kalit so‘zlar: *jinoyat protsessi, sun’iy intellekt, adolatli sud muhokamasiga bo‘lgan huquqni amalga oshirish elementlari, raqamli prokuratura, raqamli sud, prokurorning muzokara fikri, prokurorning muzokara fikrini elektron shaklda sudga yuborish, prokurorning muzokara fikri jamlangan elektron axborot tizimi (dastur), jinoyat ishi yuzasidan yuritiladigan elektron nazorat ishlari.*

Аннотация: *В целях полного, надежного, оперативного, активного и современного обеспечения защиты прав и свобод потерпевших и гражданских истцов как элемента реализации права на справедливое судебное разбирательство в уголовном процессе, анализируются текущие проблемы практики, минимизирующие ошибки и недостатки в переговорном заключении прокурора путем внедрения в эту область искусственного интеллекта, а*

также создание электронной информационной базы, содержащей переговорное заключение прокурора, и обеспечение возможности его использования в процессе исполнения, вывод задачи оказания помощи судам в принятии справедливых решений на качественно новый уровень, достижение постепенного перехода от бумажной к электронной форме контрольной работы в сфере обеспечения полномочий прокурора в уголовных судах, упрощение процесса обмена документами с судами, возможность перевода переговорного заключения из письменной формы в электронную и его отправки в суд, предоставление старшим прокурорам возможности дистанционно проверять соответствие переговорного заключения нижестоящего прокурора требованиям закона, а также предлагаются и даются рекомендации по оценке и популяризации идей прокурорского ведения переговоров. которые считаются позитивными и качественными, а также формирование единой практики ведения переговоров обвинением на этапе судебных переговоров.

Ключевые слова: *уголовное судопроизводство, искусственный интеллект, элементы реализации права на справедливое судебное разбирательство, цифровая прокуратура, цифровой суд, заключение прокурора о переговорах, отправка заключения прокурора о переговорах в суд в электронном виде, электронная информационная система (программа), содержащая заключение прокурора о переговорах, электронное контрольное производство по уголовному делу.*

Abstract: *In order to fully, reliably, promptly, actively and up-to-date ensure the protection of the rights and freedoms of victims and civil plaintiffs as an element of realizing the right to a fair trial in criminal proceedings, the article analyzes current problems of practice that minimize errors and shortcomings in the prosecutor's negotiation opinion by introducing artificial intelligence into this area, as well as the creation of an electronic information base containing the prosecutor's negotiation opinion and ensuring the possibility of its use in the execution process, taking the task of assisting courts in making fair decisions to a qualitatively new level, achieving a gradual transition from paper to electronic form of control work in the field of ensuring the powers of the prosecutor in criminal courts, simplifying the process of exchanging documents with the courts, the possibility of converting the negotiation opinion from written to electronic form and sending it to the court, providing senior prosecutors with the opportunity to remotely verify the compliance of the negotiation opinion of a subordinate prosecutor with the requirements of the law, and also proposes and gives recommendations for the assessment and popularization of the ideas of prosecutorial negotiations that are considered positive and high-quality, as well as the formation of a unified practice of negotiating with the prosecution at the stage of judicial negotiations.*

Key words: *criminal proceedings, artificial intelligence, elements of the implementation of the right to a fair trial, digital prosecutor's office, digital court, prosecutor's conclusion on negotiations, sending the prosecutor's conclusion on negotiations to the court in electronic form, electronic information system (program) containing the prosecutor's conclusion on negotiations, electronic control proceedings in a criminal case.*

Hozirgi kunda insoniyat turmush tarzida zamonaviy texnologiyalarning o‘rni ortib bormoqda, bu ayniqsa sun’iy intellekt (artificial intelligence – AI) ning paydo bo‘lishi bilan alohida o‘ziga xos bir yangi davrni boshlab berdi.

Sun’iy intellekt insonlar bilan muloqot qilishi, ularga ma’lum bir sohada maslahatlar berishi, takliflar berishi, tahlil qilishi, oldindan taxmin qila olishi, hattoki xulosalar qilishi mumkinligi bilan insonlarni o‘ziga ommaviy ravishda jalb qilmoqda.

Biroq, sun’iy intellekt insonlarning qo‘lidan ishini olishi bilan birga insoniyatga kelajakda tahdid solishi mumkinligi haqidagi qarash ham mavjud. Buning oldini olish uchun, xalqaro va milliy doirada ushbu sohani tartibga soluvchi normativ hujjatlarni ishlab chiqish zaruratini paydo qildi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 2024-yil 21-mart kuni “Barqaror rivojlanish uchun xavfsiz, himoyalangan va ishonchli sun’iy intellekt tizimlarining imkoniyatlaridan foydalanish” nomli A/78/L.49-sonli rezolyutsiyasi ayni shu sohani tartibga soladi.

O‘zbekiston Ruspublikasida ham sun’iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish va ularni mamlakatimizda turli sohalarda keng qo‘llash, ayniqsa jinoyatchilikni oldini olish, korrupsion holatlarni bartaraf etish va sud jarayonlarida qo‘llash maqsadida sohalarni raqamlashtirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu maqolaning so‘zboshida aytib o‘tish lozimki, maqolada jinoyat sudlarida ishtirok etayotgan prokurorning muzokara nutqini (ovozli yozuvni planshet yordamida maxsus dasturda qayd etish) elektron shaklda qayd etish, imzolash orqali sudga elektron shaklda yuborish imkoniyati va afzalliklari muhokama qilinadi.

Dastlab, mamlakatimizda sud-huquq tizimida sohani raqamlashtirishga oid qabul qilinayotgan normativ hujjatlarni aniqlab olamiz va shundan so‘ng amaliyotda mavjud muammolar va ularga samarali yechimlar hamda qonun normalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yuzasidan taklif va tavsiyalar muhokama markaziga aylanadi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-sonli Qarorida “Sun’iy intellektni

rivojlantirish strategiyasi”ni ishlab chiqish va Normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish nazarda tutilgan.

Ayniqsa, sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, raqamlashtirish ishlarini izchil davom ettirish, sudlarning moddiy-texnik ta’minotini yaxshilash, shuningdek, «Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida Prezidentimiz tomonidan 21.08.2025-yilda “Sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta’minotini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonning qabul qilinishi sud sohasiga ham sun’iy intellektni joriy etish juda muhim ekanligidan dalolat beradi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.11.2025-yildagi “Raqamli prokuratura — 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-204-sonli farmonida, prokuratura organlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi holati bugungi dolzarb va istiqbolli vazifalarni lozim darajada hal qilish imkonini bermaydi, shu bois, prokuratura organlari faoliyatini raqamli transformatsiya qilish dolzarb masalaga aylanayotganligi ko‘rsatilgan.

Mazkur strategiyaning asosiy maqsadi — prokuratura organlarini raqamli transformatsiya qilish sohasidagi yagona siyosatni shakllantirishdir.

Farmon bilan sudlarda prokuror vakolatini ta’minlash borasida ham bir qator vazifalar belgilandi.

Jumladan, sudlar va prokuratura organlari o‘rtasida elektron hamkorlikni yanada rivojlantirish, shu jumladan, ma’muriy, iqtisodiy va fuqarolik sudlarida ishlar ko‘rib chiqilishida prokurorlar uchun masofadan ishtirok etish imkoniyatini yaratish vazifasi belgilandi.

Shuningdek, axborot tizimlariga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, tartib-taomillarni elektron shaklga o‘tkazish va ortiqcha bosqichlarni chiqarib tashlash orqali ish jarayonlarini maqbullashtirish hamda nazorat qilish ob’ektlari faoliyatini raqamlashtirish orqali prokuratura organlarining nazorat funksiyalarini takomillashtirish va hokazolar belgilandi[1].

Yuqorida tadqiqot ob’ektiga tegishli bir qancha normativ hujjatlar va ularning vazifalariga to‘xtalib o‘tildi va endi prokurorning jinoyat sudlarida ishtirokini ta’minlashga oid mavjud normativ hujjatlar tahliliga hamda amaliyotda mavjud muammolarga va sohaga raqamlashtirishni joriy etish orqali mavjud muammoga samarali yechimlarni tahlil qilamiz.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.11.2025 yildagi “Raqamli prokuratura — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-204-sonli farmoni. Lex.uz.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksinining 34-moddasiga ko‘ra, prokuror sud muhokamasida qatnashib, ushbu Kodeksning 409-moddasida nazarda tutilgan vakolatlarni amalga oshirishi belgilangan.

JPKning 409-moddasida belgilab qo‘yilgan-ki, ya’ni prokuror birinchi instansiya sudlarida jinoyatlarga doir ishlarni ko‘rishda ishtirok etib, davlat ayblovini quvvatlaydi, dalillarni tekshirishda ishtirok etadi, sudlanuvchilarga, jabrlanuvchilar, guvohlar, ekspertlar va sudga taklif etilgan boshqa shaxslarga savollar beradi, Jinoyat kodeksining normalarini qo‘llash, sudlanuvchining harakatlarini tavsiflash, unga jazo turini va me’yorini tayinlash to‘g‘risida hamda sud hal etishi lozim bo‘lgan boshqa masalalar yuzasidan o‘z fikrini bayon qiladi, jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar haqida hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan choralar xususida o‘z fikrini bildiradi.

Prokuror davlat ayblovini quvvatlar ekan, ushbu Kodeksning, O‘zbekiston Respublikasi boshqa qonunlarining talablariga va ishning barcha holatlarini qarab chiqishga asoslangan o‘z ishonchiga amal qiladi. Shu o‘rinda aytib o‘tish lozimki, RF yuridik fanlar doktori A.Tushev, prokurorning sudda ishtirok etishining muhimligiga oid ilmiy tadqiqotida, raqobatbardosh ish yuritish prokurorning jinoyat ishlarida majburiy ishtirokini belgilovchi omil ekanligini ta’kidlagan[2].

Shuningdek, JPKning 450-moddasida, muzokara tamom bo‘lganidan keyin taraflar ushbu Kodeks 457-moddasining birinchi qismidagi 1—6-bandlarda nazarda tutilgan masalalar yuzasidan chiqariladigan qarorning o‘zlari taklif etadigan mazmunini sudga yozma ravishda taqdim etishlari mumkin. Davlat ayblovchisi va himoyachi uchun qarorning bunday mazmunini sudga taqdim etish majburiyligi, qayd etilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning 33-moddasi 2-4-qismlarida, prokuror sudlarda jinoyat ishlari ko‘rilayotganda davlat ayblovini quvvatlashi, sudda dalillarni tekshirishda ishtirok etishi, qonunning qo‘llanishi xususida o‘z fikrini bildirishi va ishlar sudlarda ko‘rilayotganda ishtirok etayotgan prokurorning vakolatlari protsessual qonunlar bilan belgilanishi, - qayd etilgan. Biroq, amaliyotda prokuror yozma fikrini sudga o‘z vaqtida taqdim qilishda texnik muammolar bor.

Ya’ni prokuror sudning muzokara bosqichiga oldindan tayyorlanib kelganda, sud tergovi davomida aniqlangan holatlarga qarab muzokara nutqini o‘sha vaqtning o‘zida o‘zgartirishi yoki tuzatish kiritishi uchun texnik imkoniyatlar yetarli bo’lmasligi mumkin. Shu sababli, prokurorning yozma ayblov nutqi yoki muzokara so‘zini JPKda belgilangan vaqtda sudga topshirish imkoni bo‘lmaydi. Zero, sud faqatgina sud muhokamasida aniqlangan va isbotlangan dalillarga tayanib hukm chiqaradi. Xuddi,

[2]А.А.Тушев. Прокурор в уголовном процессе Российской Федерации: система функций и полномочий. 2006.

shu kabi muzokara fikrini sud tergovida aniqlangan holatlarga qarab o‘zgartirish texnik imkoni mavjud emasligi muammosi sud majlisi muhokamasida ishtirok etayotgan himoyachi (advokat)larda ham uchraydi.

JPKning 409-moddasi 2-qismida, prokuror davlat ayblovini quvvatlar ekan, ushbu Kodeksning, O‘zbekiston Respublikasi boshqa qonunlarining talablariga va ishning barcha holatlarini qarab chiqishga asoslangan o‘z ishonchiga amal qiladi, - deb belgilangan. Yuqoridagi normani bajarish uchun sudda ishtirok etayotgan prokurorning yonida kamida 1 ta jinoyat kodeksi, 1 ta Jinoyat protsessual kodeksi, kodekslar sharhi, tegishli Oliy sud Plenum qarorlari nusxalari, jinoyat ishi bo‘yicha nazorat ishi, yon daftari va telefon bo‘lishi lozim.

Biroq, prokuror ushbu ish hujjatlarini o‘zi bilan birga sud majlisiga olib borishi imkoniyati ba’zida bo‘lmasligi ham mumkin. Shunga qaramay, sud majlisida har bitta jinoyat ishi ko‘rib chiqilishi negizida bir yoki bir nechta shaxslar taqdiri turadi, shu sababli insonlar taqdiriga befarq bo‘lmaslik maqsadida bu hujjatlar prokurorning yonida bo‘lishi, ushbu hujjatlardan doimiy foydalanishi va amaliyotda qo’llashi lozim. Prokuror har doim sud majlisiga tayinlangan jinoyat ishi bo‘yicha puxta tayyorgarlik ko‘rib, so‘ngra sud majlisida ishtirok etishi ko’satma talabi hisoblanadi. Lekin, sud majlisi zalida sud tergovida aniqlangan holatlar tergovda aniqlangan holatlarga to‘g‘ri kelmasa, prokuror sohaga oid hujjatlarni ishonch hosil qilishi uchun qayta ko‘rib chiqishi lozim bo‘lsa, prokuror tayyorlab kelgan yozma muzokara nutqida kamchilik bo‘lsa, yoki ayblov nutqini o‘zgartirish lozim bo‘lsa, prokuror tayyorlab kelgan yozma prokuror fikrini sud majlisi zalida o‘zgartirish lozimligi ma’lum bo‘lganda, muzokarani to‘g‘irlab JPKda belgilangan real vaqt rejimida sudga taqdim qilishning texnik imkoniyatlari mavjud emas.

Bu amaliyotda muammo bo’lishi yoki muammo bo‘lmasligi mumkin, biroq, JPKning 450-moddasi talabida, sud muzokarasi tamom bo‘lganidan keyin peokuror va himoyachi muzokara so‘zini yozma ravishda sudga taqdim qilish majburiyligi belgilangan. JPK talabi protsessning barcha ishtirokchilari uchun majburiy va JPK talabining buzilishi tegishli tartibda javobgarlikka tortishga sabab bo‘ladi.

Ushbu muammoli vaziyatga baho berishdan oldin, rivojlangan davlatlarning qonunchiligini tahlil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Xususan, Germaniya jinoyat-protsessual kodeksida, O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligida mavjud normalar kabi sud majlisida prokuror ishtirok etishi majburiyligi belgilangan.

Prokuror (nemischa - Staatsanwalt) sud majlisida ishtirok etib taraflarga savollar beradi, ishning yakunida muzokara (nemischada “Pladoyer”) bilan qatnashadi. Germaniya jinoyat-protsessual qonunchiligida, prokurorning muzokarasida asosiy

e'tibor og'zaki muzokara qilishga asoslanganligi, sudga muzokarani yozma shaklda topshirish majburiy emasligi, ya'ni ixtiyoriy ekanligi belgilab qo'yilgan[3].

Qachonki, prokuror og'zaki muzokara qilgandagina, yozma muzokara so'zini topshirishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessual qonunchligida ham sud muzokara bosqichida prokurorning og'zaki muzokara nutqi majburiy, Germaniya qonunchiligidan farqi prokuror og'zaki muzokara nutqi bilan birga, qilgan muzokarasining yozma shaklini ham sud muzokarasining yakunida sudga taqdim qilishi majburiy etib belgilangan.

Shuningdek, Germaniyada prokuror og'zaki muzokara qilgandan so'ng ushbu muzokara nutqining yozma shaklini sud majlisi kotibiga topshiradi yoki PDF shaklda elektron tizim (beBPo tizimi) orqali sudga yuborish imkoniyati mavjud[4]. Fransiya jinoyat protsessual qonunchiligida ham xuddi Germaniya jinoyat protsessual qonunchiligi kabi sud majlisida prokurorning muzokara nutqi og'zakilikka asoslangan bo'lib, muzokara nutqini yozma shaklda topshirish majburiy emasligi belgilangan.

Prokurorning muzokara fikri yozma shaklda topshirilishidan asosiy maqsad sudyaga yordamchi hujjat sifatida qaror qabul qilishda ko'maklashish hisoblanadi. Bu o'z navbatida adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquqni ta'minlash elementlaridan birini ya'ni sudlanuvchining o'ziga nisbatan adolatli jazo tayinlanishiga bo'lgan huquqini ro'yobga chiqaradi. Shu bilan bir qatorda nafaqat sudlanuvchi balki, jabrlanuvchi va fuqaroviy da'vogarlarning ham huquq va erkinliklarini himoya qilinishi ta'minlanadi.

Shuningdek, sudga taqdim qilingan prokuror muzokara fikrining elektron reyestri mavjud emasligi va masofadan turib, prokurorning sud muzokarasida bildirgan fikrini qonun talablariga, Oliy sud plenum qarorlariga va Bosh prokuror ko'rsatmalariga muvofiqligi, sifatli yoxud sifatsiz muzokara qilinganligini masofadan o'z vaqtida nazorat qilib borish imkoni mavjud emas.

Quyi turuvchi prokurorning muzokara fikrini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish, muzokarada yo'l qo'yilayotgan tizimli kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, kelgusida kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik maqsadida masofadan turib doimiy nazorat qilish imkonini beruvchi prokuror muzokara fikri jamlangan elektron tizim mavjud emasligi va shunday tizimni joriy etish istiqboli tadqiqot ob'ekti markazida turadi.

Yuqorida muhokama qilingan muammoli holatlarga yechim sifatida JPKning 450-moddasiga, muzokara tamom bo'lganidan keyin taraflar ushbu Kodeks 457-moddasining birinchi qismidagi 1—6-bandlarda nazarda tutilgan masalalar yuzasidan chiqariladigan qarorning o'zlari taklif etadigan mazmunini sudga yozma yoki elektron tarzda taqdim etishlari mumkinligini belgilash lozim.

[3] https://dokuments.law.yale.edu
[4] https://dokuments.law.yale.edu

Shuningdek, JPKning 409-moddasi 5-qismini ham prokuror ayblovning mazmunini o‘zgartirish yoki ayblovdan voz kechish sabablari xususidagi fikrini sudga yozma **yoki elektron** tarzda taqdim etishi shartligini belgilash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Prokuror muzokara fikri elektron tarzda sudga yuborish va prokurorning muzokara fikri jamlangan elektron baza tashkil etilishi va yuqori turuvchi prokurorning muzokara fikrini qonunlarga mosligini o‘rganish imkonining mavjudligi sudda ishtirok etayotgan prokuror faoliyati samaradorligini baholash tartibini yangi bosqichga olib chiqadi.

Eng asosiy taklif sifatida, sud majlisida ishtirok etayotgan prokurorga sud majlisining o‘zida “LEX.UZ” axborot tizimiga kirish, Oliy sud plenum qarorlaridan foydalanish, JK va JPKning yangilangan tahrirlaridan hamda Kodekslar sharhidan foydalanish, muzokara so‘zining namunalaridan foydalanish, muzokara nutqini elektron shaklda (keyinchalik sun’iy intellekt yordamida) tuzish va uni sudga yuborish imkoni mavjud bo‘lgan elektron axborot tizimini amaliyotga joriy etish tavsiya etiladi.

Bu elektron axborot tizimi shunday tizim bo‘lishi kutiladi-ki, elektron jinoiy huquqiy statistika axborot tizimiga integratsiya qilinadi, natijada sudlanuvchiga oid ayblov xulosasini olish va uning ayblov qismini dasturga kiritish natijasida sudlanuvchiga JKda mavjud bo‘lgan alohida toifadagi shaxslar (voyaga yetmagan shaxslar, xotin-qizlar, uch yoshga to‘lmagan farzandi bor ayollar va nafaqa yoshidagi shaxslarni)ni dasturning o‘zi aniqlab, ularga JKning umumiy qismidagi alohida belgilangan normalarni qo‘llashni tavsiya etadi.

Misol uchun, voyaga yetmaganlarga yoki nafaqa yoshidagi shaxs ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etib, unga oid jinoyat ishi tergov yakunlanib, ish sudga yuborilib, sudda ko‘rilishi jarayonida, sud muzokara bosqichigacha prokuror ushbu dastur orqali JKning umumiy qismidagi 50-moddasida nazarda tutilgan ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilish mumkin emasligi haqidagi normani topib berishga yordam beradi.

Shuningdek, dastur ushbu shaxsga ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq jazo tayinlashga to‘sqinlik qiladi.

Bundan tashqari, ayollarga, yoki oltmish yoshdan oshgan erkaklarga nisbatan tayinlanishi mumkin bo‘lgan modda sanksiyasida nazarda tutilgan eng ko‘p jazoning uchdan ikki qismidan oshmasligi lozimligi haqidagi norma dasturda prokuror jazo miqdorini so‘rashda belgilangan miqdordan oshib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Qisqa qilib aytganda, taklif etilayotgan elektron axborot tizim (dastur) sudlar va prokuratura organliri faoliyatini raqamli transforatsiya qilish maqsadiga to‘liq mos keladi. Bu dasturni amaliyotga joriy etish orqali quyidagilarga erishish mumkin bo‘ladi:

1) prokurorning muzokara so‘zini JK, JPK va Oliy sud Plenumi qarorlariga muvofiq sifat jihatdan samaradorligini oshirish;
2) prokurorning sud’yalarga adolatli qaror chiqarishda ko‘maklashish faoliyati sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqarish;
3) jinoyat sudlarida prokuror vakolatini ta’minlash sohasida yuritiladigan nazorat ishlarining bosqichma-bosqich qog‘oz shaklidan elektron shaklda yuritishga erishish;
4) nazorat ishlarini yuritishning qog‘oz shaklidan elektron shaklga o‘tish orqali ish hajmini kamaytirish;
5) sudlar bilan elektron hujjat almashish jarayonini tezlashtirish, muzokara so‘zini yozma shaklidan elektron shaklga o‘tishi va sudga yuborish;
6) prokurorning muzokara nutqlarini bitta xaborot tizimga jamlash va undan prokuror faoliyati davomida foydalanish imkoniyati;
7) yuqori turuvchi prokurorlarga quyi turuvchi rokurorning muzokara so‘zini qonun talablariga muvofiqligini masofadan o‘rganish;
8) ijobiy va sifatli deb topilgan prokuror muzokara fikrini ommalashtirish imkoniyati;
9) sudlarda ishtirok etuvchi prokurorning faoliyatini masofadan baholash va nazorat qilishi;
10) sudlanuvchining o‘ziga nisbatan adolatli hukm chiqarilishiga bo‘lgan huquqini prokurorlar tomonidan real vaqt rejimida aktiv va zamonaviy usullarda ta’minlash;
11) prokurorning sud muzokara bosqichida yo‘l qo‘yilayotgan xatolarini minimallashtirish;
12) sud muzokara bosqichida yagona prokuror muzokara amaliyotini ta’minlashga erishiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, sud-huquq tizimi raqamlashtirish yo‘lidan borar ekan, sudlarda prokuror vakolatini ta’minlashda prokuror faoliyatini raqamlashtirish va ishlarni qog‘oz shaklidan elektron tarzda ish yuritish bosqichiga o‘tkazish kabi vazifalar sohadagi islohotlarning ajralmas qismi hisoblanadi.

«Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalardan biri, ya’ni jinoyat ishlarini 100 foiz elektron shaklda yuritish va ulardan nusxa olish imkoniyatini yaratish, o‘z navbatida tergov va sud jarayonida yuritilishi lozim bo‘lgan nazorat ishlarining ham elektron shaklda yuritilishini taqozo etadi. Tadqiqotda sudlarda prokuror vakolatini ta’minlovchi davlat ayblovchisi sudda ko‘rilayotgan jinoyat ishi hujjatlari bilan tanishib chiqish, jinoyat ishlarining elektron shaklidan sud muhokamasi jarayonida foydalanish, sud muzokarasi bosqichida prokuror ayblov nutqini tuzishda elektron dastur (sun’iy intellektga asoslangan tizim)dan foydalanish, prokuror muzokarasini elektron qayd etish (audiyozuv va stenogramma usulida jamlash) va muzokara nutqining elektron imzolangan shaklini elektron yuritilayotgan jinoyat ishi hujjatlariga ilova qilinishi uchun sudga yuborish imkonini beruvchi tegishli axborot tizimlari o‘rnatilgan maxsus planshetlardan foydalanish imkoniyatini yaratish taklifi ilgari surilgan.

Eng asosiysi, mazkur sohada raqamlashtirishdan ko‘zlangan maqsad, jinoyat ishi yuzasidan yuritilishi lozim bo‘lgan nazorat ishlarini qog‘oz shaklidan voz kechib, elektron shaklga bosqichma-bosqich o‘tish va yuqori turuvchi prokurorlarga quyi turuvchi prokuror faoliyati samaradorligini baholashda masofadan turib o‘z vaqtida o‘rganish imkoniyatini yaratish orqali jinoyat protsessida adolatli sud muhokamasiga bo‘lgan huquqni yanada to‘la to‘kis ta’minlash hisoblanadi. Bu takliflar o‘z navbatida, davlatning sohani raqamlashtirish borasidagi siyosatiga mutanosib ravishda, sudda qatnashuvchi prokurorlarning mas’uliyatini ikki hissa oshirib, o‘z sohasining professional yetuk kadri bo‘lib shakllanishiga ko‘maklashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Qonun hujjatlari.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. 1994.
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 1994.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonuni. 2001.
5. O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi qonuni. 2021.
6. O‘zbekiston Respublikasi “Advokatura to‘g‘risida”gi qonuni. 1996y.

II. Qonun osti hujjatlari.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.08.2025-yildagi “Sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta’minotini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-140-sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.11.2025-yildagi “Raqamli prokuratura — 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-204-sonli farmoni.

III. Ilmiy ishlar ro‘yxati.

1. M.Z.Radjapova. Jinoyat ishlarini yuqori instansiya sudlarida ko‘rilishida prokuror funksiyalari va vakolatlarini takomillashtirish: qiyosiy huquqiy tahlil. T-2023.
2. А.А.Тушев. Прокурор в уголовном протсессе Российской Федератсии: система функсий и полномочий. 2006.

IV. Internet saytlar.

1. Lex.uz.
2. Norma.uz
3. https://dokuments.law.yale.edu
4. Dissercat.com